

**ABULG'OZIY BAHODIRXONNING "SHAJARAYI TURK"
ASARINING O'RGANILISH TARIXI**

Jo`rayev Azizbek Anvar o`g`li

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Telefon raqami: +998930781078

Email: azizdjurayev030@gmail.com

Yangiboyev Abdulaziz O`tkir o`g`li

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Telefon raqami: +998931453353

Email: yangiboyevabdulaziz53@gmail.com

Jo`raqulov Javohir Xayrulla o`g`li

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Telefon raqami: +998940454696

Email: javohirjoraqulov278@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abulg'oziy Bahodirxon va uning "Shajarayi turk" asari haqida yozilgan bo'lib manbalar tahlili asosida yoritilgan. Ushbu maqolada Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari sharq va g'arb tarixchilari tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilishi va asar asosida olib borilgan izlanishlari ochib berilgan. Sharq mutafakkirlaridan Munis va Ogahiyning "Firdavsul-iqbol" asarida Ya.G'.G'ulomov "Xorazmning sug'orilish tarixi", Bayoniy esa "Shajarai Xorazmshohiy" kitobida nihoyatda yaxshi fikr bildirganlar. Shu bilan bir qatorda g'arb olimlari P.P.Ivanov va A.K.Borovkovlar hamda B.V.Lunin "O'rta Osiyo tarixidan ocherklar" risolasida, B.V. Bartold "Madaniy hayot tarixi" kabi asarlarida ham Abulg'ozi Bahodirxonning ijodiga yuqori baho berganlar.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, "Manofe' ul-inson", ajdodlari tarixini, Tarixni, tilni mukammal bilishi, "Shajarai turk", Mo'g'iliston, M.I.Yo'ldoshev.

Xiva xonligi tarixini o'sha davrga oid manbalar xususan, "Shajarai turk" asosida o'rganish ham maqsadga muvofiqdir. Shu boisdan bo'lsa kerak Abulg'oziy Bahodirxon va uning "Shajarayi turk" asari Munis va Ogahiy, Bayoniy, Ya.G'.G'ulomov, M.I.Yo'ldosheva boshqa sharq olimlari bilan bir qatorda chet el tarixchilari P.P.Ivanov, A.K.Borovkov va P. I.Demizonlarning ham e'tiborini o'ziga tortgan manbalardan birihisoblanadi. Bu asar va u yaratilgan davr haqida yetarlicha ma'lumotlar mavjud va voqealarnimanbalarga tayangan holda chuqur tahlil qilish mumkin. Abulg'oziy Bahodirxon qat'iyatli talabchan hukmdor sifatida mamlakatda adolat va birdamlikni qaror toptirish yo'lida fidoiylik ko'rsatgan shaxsdir. Abulg'oziyning bizga uchta asari yetib kelgan: "Manofe' ul-inson", "Shajarai tarokima", "Shajarai turk". Abulg'oziyning iste'dod qirralari rang barang. Bu haqida "Shajarai turk" asari muqaddimasida uning o'zi batafsil so'zlaydi: "Bu faqirg'a xudoyi taolo inoyat qilib ko'p nimarsa berganturur. Xususan uch hunar berganturur. Avval "Shajarai turk" ning qonuni va yo'sinukim, nechuk o'tlanmoq va yuramak va yovga yasoq yashamoq, ko'pbirlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq, do'stg'a, dushmang'a nechuk so'zlashmak. Ikkinchi masnaviyot va qasoyid, g'azaliyot, va muqattaot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahlidin to bu damgacha Arabistonda Eron va Turonda va Mo'g'ilistonda o'tgan podshohlarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam va ziyodin bilmaklik. Abulg'oziy serqirra iste'dodsohibi, ayniqsa, tarix ilmida noyob qamrovga ega shaxs sifatida hurmat qozongan¹.

Abulg'oziy o'zidagi salohiyatdan foydalanib ajdodlari tarixini yozishga jazm etadi: "Bizning ota va aqalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevuqfligi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizni Abdullaxonning otalari birlan to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali deb fikr qilduq. Hech munosib kishi topmaduq. Zarur bo'ldi, ul sababdin o'zimiz

¹Shermuhammad Munis. Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol.

T.:2010. – 382b.

aytdugʻ. “Shajarai turk” daasarning yozilish tarixi, sabablari va maqsadi haqida maʼlumot beradi. Shu oʻrinda muallifning koʻp fazilatlari ochiladi. Tarixni, tilni mukammal bilishi, til sofligini saqlash madaniyati yaqqol namoyon boʻladi. Abulgʻozixon oʻzining “Shajarayi turk” asarida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, xonlarining tashqi siyosati, hamda chet davlatlar bilan aloqalari hamda oʻz davri bilan paytda oʻzidan avvalgi davr haqidagi muhim maʼlumotlarni ham bayon etadi. Shu sababli boʻlsa kerak asar sharq olimlari bilan bir qatorda gʻarb tarixchi olimlarini ham qiziqtirib qoʻygan. Abulgʻozining hayoti va ijodi, asarlari Sharq tarixchi olimlarining diqqateʼtiborida boʻlgan².

Abulgʻozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarixususida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Munis va Ogahiyning “Firdavsul-iqbol” asarida Ya.Gʻ.Gʻulomov “Xorazmning sugʻorilish tarixi” Bayoniy esa “Shajarai Xorazmshohiy” kitobida nihoyatda yaxshi fikrlar bildirganlar³. Shuningdek, M.I.Yoʻldoshev “Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilishi” asarida, Tarixchi olim H.Xudoynazarovning Abulgʻozi Bahodirxon hayoti va ilmiy faoliyatini oʻrganishga doir tadqiqotlari ayniqsa diqqatga sazovor. “Abulgʻozi Bahodirxon tarixchi va adib”, shuningdek, “Shajarai turk” va uning oʻrganilishi asarlarida Abulgʻozixonning ilmiy merosi, hamda uning Xiva xonligitarixida qoʻshgan hissasi haqida soʻz yuritilgan⁴.

Q.Munirov “Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari”, B.A.Ahmedov “Koʻchmanchi oʻzbeklar davlati” kabiasarlarida ham Abulgʻozi Bahodirxonning ijodiga yuqori baho berganlar. Bu paytda esa yevropalik olimlar ham oʻz diqqat etiborlarini Abulgʻoziy Bahodirxonning asarlariga qaratishgan edi. Abulgʻozining hayoti va ijodi, asarlari Sharq tarixchi, olimlari bilan bir qatorda rus va boshqa chet el olimlarining ham diqqat eʼtiboridaboʻlgan. Jumladan, rus tarixiy adabiyotlarida chet tillardan tarjima qilingan asarlar qatoriga

² Ya.Gʻ.Gʻulomov. Xorazmning sugʻorilish tarixi. T.:1959. -323b.

³ Lunin B.V. Ocherki po istorii Sradney Azii. M.: 1958.

⁴ Shermuhammad Munis. Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol.

T.:2010. —382b.

1770-yildan “Shajarayi turk” asari ham qo’shiladi. Abulg’ozixonning “Shajarai turk” asari 1825-yilda Qozonda Rumyansev, 1854-yilda G.S.Sablukov, 1871-yilda

P. I. Demizonlar tomonidan bir necha marotaba rus tilida nashr etiladi. “Shajarayi turk” ning rus tiliga tarjimasi Rossiya oliy o’quv yurtlarida Sharq xalqlari tarixi va tilini o’qitish ishiga ham ijobiy ta’sir etdi. Masalan, Qozon Davlat dorilfununining professori I.N. Berezin turkiy xalqlar tarixini o’qitishda Abulg’ozining asarlariga ham tayangan : “Turk xrestomatiyasi” nomli kitobi va dorilfunun talabalariga o’qigan ma’ruzalarida “Shajarayi turk” tayanch manbai bo’lib xizmat qilganligini olimning o’zi ta’kidlaydi . G’arbiy Yevropada esa asar nemis, ingliz, fransuz tillarida, hatto Amerikada ham tarjima qilinib nashr ettirildi. Poltav yaqinidagi g’alabadan so’ng Sibirga jo’natilgan shved ofiserlari Tobolskda Abulg’ozixonning qo’lyozmasi va uning mundariyasi bilan tanishgach bu asar tarjimasi ustida ishlay boshladilar. Bu ilmiy tadqiqotning asosiy tashabbuskori Filipp Ioann Tabbert Shtralenberg edi. O’z navbatida shved Shenstrem rus tilidagi tarjimadan foydalanib asarni nemis tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo’ladi⁵. Asar nemis tiliga tarjima qilinishidan oldin fransuz tilida 1726-yil Bryusselda “Histoire genealogique des Tatars, traduite du manuscrit tartare d’Abulgasi – Bahadur – Chan, et enrichie d’un grand nombre de remarques et tres curieuses sur le veritable estat present de l’Asie septentrionale, avec cartes geographiques necessaries. ParD.” nomi ostida nashr qilingan. P. N. Demezov 1871-1874 yillar orasida “Shajarai turk”ni fransuz tiliga tarjima qiladi “Shajarai turk” tarjimasi unga katta shuhrat keltiradi. “Abulg’ozi Bahodirxon o’zining muarrixligi bilan mo’g’ul, turk tarixchilari orasida shuhrat qozongan va shu bilan bir vaqtda Xiva hukmroni (1643- 1663) bo’lib, uning asarlari Rossiya va chet el tillarida ham tarjima qilingandir”, deb yozadi olim A. Semenov. Ayniqsa, O’zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston xalqlari tarixini yorituvchi tarixshunoslar Abulg’oziy asarlariga tayanch manbai sifatida murojaat qilganlar.¹⁰ Taniqli turkshunos S.I. Ivanov Abulg’ozixonning “Shajarai turk” asari bo’yicha ko’p yillar davomida tadqiqot

⁵ Ya.G’ulomov. Xorazmning sug’orilish tarixi. T.:1959. -323b

ishi olib borib, samarali mehnatining mahsuli sifatida Abulg'ozixonning "Shajarai turk" asari ("Rodoslovnnoye drevo tyurok" Abulgazixana") nomli monografiyasni yozdi. Monografiya 1969 – yilda Toshkentda nashr etilgan. Abulg'ozzi Bahodirxonning asarlari tarixshunoslikdagi o'zni beqiyos. Ular turkman, tojik, o'zbek milliy xalqlari tarixini yoritishda tayanch manbalardandir. B.Ahmedov, Q. Munirov, K. Yusupov, M. Yo'ldoshev kabi olimlarimiz o'z asarlarida Abulg'ozzi Bahodirxonning ma'lumotlaridan keng foydalanishgan. A. Kononov, A.M.Shcherbak S.I. Ivanov kabi olimlar ham tilshunoslikning turli muammolarini yechishda Abulg'ozziy asarlariga tayanganlar. Ozod Sharafiddinov, M. Yunusov, V Abdullayevlar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishdan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abulg'ozzi Bahodirxon asarlarining O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida bir qancha qo'lyozma nusxalari mavjud. Mustaqillik yillarida "Tarixsiz kelajak yo'q" shioriga amal qilinib Abulg'ozzi kabi allomalar faoliyati va asarlarini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Abulg'ozzi Bahodirxonga atab tug'ilgan yurti Xorazmda unga haykal o'rnatildi. Asarlari chop etildi. Halim Xudoynazarov Abulg'ozziy haqida bir qancha tadqiqotlar olib borib, risola va monografiyalar chop ettirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Shermuhammad Munis. Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. T.:2010. – 382b.
2. Ya.G'.G'ulomov. Xorazmning sug'orilish tarixi. T .:1959. -323b.
3. Lunin B.V. Ocherki po istorii Sradney Azii. M.: 1958.
4. B.V. Bartold "Madaniy hayot tarixi". M.: 1963